

INNOVASION FAOLIYATNI MOLIVAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH UCHUN ICHKI MANBALARNI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti, i.f.f.d (PhD), kafedra dotsenti

Namangan davlat texnika universiteti

email: nbahriddinov@lincolnucsf.edu

+ 998905547147

ORCID: 0000-0002-3765-5778

Annotatsiya. Maqolada korxonalarining innovatsion faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirishning ichki manbalarini yaratish usullari ko‘rib chiqilgan. Mazkur masala bo‘yicha turlixil rag‘batlantirish usullari o‘rganilgan va ularni korxonalarida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan va baholangan. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirishning turli xil usullaridan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. innovatsion faoliyat, rag‘batlantirish, korxonalar, moliyaviy rag‘bat, samaradorlik, xorijiy tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, globallashtirish, iqtisodiy o‘rnatish, ijtimoiy va ijtimoiy infratuzilma.

Kirish. Xo‘jalik yurituvchi korxonalarida innovatsion faoliyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi to‘g‘ridan to‘g‘ri korxonalarida innovatsion faoliyatning moliyaviy resurslar hajmi va ularning ajralmas qismi bo‘lgan mahalliy byudjet daromadlarining shakllanishiga bog‘liq. Bu esa innovatsion salohiyat va uning baholanishi bilan belgilanadi. Shuning uchun korxonalarida innovatsion faoliyatning moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlari ichki manbalarini yaratishni kompleks tadqiq qilishda korxonalarida innovatsion faoliyatning iqtisodiy jarayonlarini batafsil o‘rganib chiqishni va ilg‘or xorij tajribalarini o‘rgangan holda korxonalarida innovatsion faoliyatning moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarini yaratishdan samarali foydalanishga ta‘sir ko‘rsatadigan qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Albatta korxonalarida innovatsion faoliyatning moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarini yaratishni miqdoriy baholashning samarali uslublarini rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganib chiqish, milliy iqtisodiyotimizning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot davomida yuqorida ta‘kidlangan innovatsion faoliyatga oid dastlab keng ma‘noda «Innovatsiya» atamasi birinchi marta avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter tomonidan 1912 yilda «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi»¹ asarida taklif etilgan. Innovatsion nazariyaning eng asosiy qoidalari ham ushbu asarda to‘la asoslab berilgan.

Amerikalik boshqaruv bo‘yicha mutaxassis P.Druker innovatsiyaga nisbatan yanada kengroq yondashuvni chiqdi, ya‘ni «Yangilik kiritish – bu murakkab tizim bo‘lib, uning yordamida g‘oyalar va ixtirolar birinchi marta tijorat voqeligiga

¹ Shumpeter Y. «Teoriya ekonomicheskogo razvitiya». – M., Progress, 1982. –455s.

aylanadi. Bu – mahsulot yoki xizmat turlarini bozorga chiqarish, iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish, demakdir»² ishlab chiqdi.

Yana bir ta'rif quyidagicha: «innovatsiya – bu jamiyat taraqqiyotining ta'siri ostida inson o'zgaruvchan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun yangilik kiritish, yangiliklarni (yangi amaliy vositani) yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish jarayoni» deb ifodalanadi. E.A.Utkin³ esa innovatsiya (yangilik kiritish)ni amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yoki kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan, avvalgisidan sifat jihatdan farq qiluvchi ob'yekt sifatida ta'riflaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganshi va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Tahlil va natijalar. Bu muammolarni o'rganar ekanmiz, avvalombor qo'yidagilarni bayon etamiz:

Xo'jalik yurituvchi korxonalarida innovasion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarni baholashda yondoshuvlar metodologiyasini, zamonaviy sharoitda, bir qancha mamlakatlar tajribalaridan ko'rib chiqishimiz mumkin.

Horijiy davlatlarda innovasion salohiyatni baholashning tizimli modelini aniqlashda elementli, strukturali, funksional va integral jihatlari tahlil qilinadi.

Elementli jihati innovasion salohiyatning umumiylik vaquvvatlilik tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Strukturali jihati innovasion salohiyatning tizimli ya'ni miqdor va sifatning o'zaro bog'liqligi bilan aniqlanadi. Funksional jihatida innovasion salohiyatning sanoat korxonalarida innovasion faoliyat bo'yicha taqqoslash tahlilini amalga oshirishga yordam beradi. Integral jihati innovasion salohiyat tizimida nomutanosibliklarni, qarama – qarshiliklarni yechish usullarini aniqlaydi, boshqa sanoat korxonalarida innovasion faoliyat bilan muvofiqlashtirovchi aloqalarni barqaror rivojlantirish uchun innovasion salohiyat iyerarhiyasini belgilaydi.

Iqtisodiy salohiyatning asosiy bo'g'ini sifatida innovasion salohiyatni horijiy mamlakatlarda elementlar: byudjet, soliq, kredit, investisiya va uy xo'jaliklari bo'yicha baholash olib boriladi hamda tahlil qilinadi.

Innovasion salohiyatning asosiy elementlaridan biri bo'lgan mahalliy byudjet va soliq salohiyati hududning o'z majburiyatlarini bajarishi va foydalanish imkoniyatlarini namoyon qilib, hududning yuqori darajada barqarorligini va investisiya jozibadorligining garovi bo'lib xizmat qiladi.

Bir qator horijiy mamlakatlar byudjet soliq salohiti solikli va soliqsiz tushumlari hamda transfertlari bilan belgilanadi va darajasaniqlanadi (1-jadvalga qarang).

² П.Друкер Новый бизнес.- М.: Экономика, 1993, с

³ Уткин Э.А., Морозова Г.И. Инновационный менеджмент. –М., Акалис, 1996. -208 с.

1-jadval. Yevropa mamlakatlarining sanoat korxonalarida innovasionfaoliyat byudjet daromadlari manbalari⁴

foizda

Mamlakat	Soliqli tushumlar	Soliqsiztushumlar	Transfertlar
Shvesiya	74	20	5
Fransiya	45	33	18
Buyuk Britaniya	15	13	70
Shveysariya	48	26	15
Norvegiya	44	38	18
Niderlandiya	13	67	20
Italiya	38	49	12
Irlandiya	5	79	28
Daniya	53	38	7
Germaniya	60	26	14

3.1.-jadval asosida ko‘rinib turibdiki, sanoat korxonalarida innovasion faoliyat byudjet solikli va soliqsiz tushumlarida Shvesiya – 94% ni, Daniya – 91% ni, Italiyada – 87%ni, Germaniya – 86% ni, Fransiya – 78% ni, Shveysariyada – 74% ni, Norvegiya – 82%ni tashkil etadi. Byudjetlararo transfertlarning eng katta qismi 70%i Buyuk Britaniyaga to‘g‘ri keladi, ammo bu transfertlar davlat boshqaruv hokimiyati organlarining maqsadli grantlari bo‘lib hisoblanadi.

Bu ko‘rsatkichlar Yevropa davlatlarining ijtimoiy – iqtisodiy muammolarini hal qilishda moliyaviy o‘zini o‘zi ta‘minlashi va moliyaviy mustaqilligini ko‘rsatadi.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida, hususan, AQSHda soliq salohiyatining o‘lchovi sifatida aholining jon boshiga o‘rtacha daromadlari ko‘rsatkichi keng ko‘llaniladi.

Soliq salohiyati bevosita soliq yuki shaklida amalga oshiiriladi. Shuning uchun ham davlatning fiskal manfaatlari va fiskal manbalar imkoniyatlarining o‘rtasidagi muvozanatga erishish nihoyatda muhimdir. Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning qushilgan qiymat solig‘ining 32-35%dan ko‘prog‘ini soliqdan ozod qilish ishlab chiqarishni kengaytirishga kiritiladigan investisiyalarning samaradorligi yo‘qoladi.

AQSH iqtisodiy va innovasion salohiyatini baholash uchun “Shtatlar rivojlanishi xaritasi (The Development Report Card for the States (DRS))”⁵ ishlab chiqilgan bo‘lib, 67ta ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi va uchta asosiy blok (guruh)ga birlashtiriladi.

1-blok. Iste‘molchilar uchun iqtisodiy iqlim.

2- blok. Biznes uchun iqtisodiy iqlim.

3- blok. Kelajak salohiyatining rivojlanishi.

Iste‘molchilar uchun iqtisodiy iqlim bloki o‘z ichiga bandlik va ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlarini, o‘rtacha ish haqi, ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini, “ishlayotgan kambag‘allar” darajasi, daromadlar tengsizligidarajasi, turmush sifati tavsifi va ish o‘rinlari ko‘rsatkichlarini qamrab olgan. Aholining turmush sifati baholanishi

⁴ Shah Anwar. Local budgeting / Anwar Shah. – Washington World bank, cop. 2007. – 381p.

⁵Development Report Card for the States/ URL: http://cfed.org/knowledge_center/research/DRS/ (date of treatment:02/20/2018).

ko'rsatkichlariga migratsiyadarajasi, bolalar o'limi, yurak qon-tomir kasalliklaridan o'lim darajasi, saylovlarda faol qatnashishi kiradi. Shuningdek bu blok ko'rsatkichlariga energiya iste'moli, qayta tiklanadigan energiya manbalari, yil davomida shtat aholisining o'rtacha bosib o'tgan masofasi, toksik mahsulotlar ishlab chiqilishi va issiqxona gazlari chiqindilari baholanishi ham kiradi. Har bir blok bo'yicha monitoring tizimi ko'rsatkichlar dinamikasini o'z ichiga oladi. Masalan, ishsizlik darajasi dinamikasi, qambag'allik darajasi dinamikasi va boshqalar.

Biznes uchun iqtisodiy iqlim bloki ko'yidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi: ishlab chiqarishga kiritilgan investisiyalar darajasi, ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi darajasi, yangidan tashkil etilgan kompaniyalar miqdori, yangi tashkil etilgan ish o'rinlari miqdori va boshqalar. Bu ko'rsatkichlar asosida oldingi boblarimiz paragraflarida bizham tahlil qilganimizdek, innovasion salohiyatga ta'sir ko'rsatadi va mahalliy byudjet daromadlarini oshishiga olib keladi.

Yevropa ittifoqi sanoat korxonalarida innovasion faoliyati uchun ishlab chiqilgan sanoat korxonalarida innovasion faoliyat kapital konsepsiyasi, sanoat korxonalarida innovasion faoliyat resurslarinidynamik tarzda analitik ifodalab, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida yangi bozorlarga erishishdan mehnat resurslarini jalb qilish va biznesni rivojlantirishgacha bo'lgan masalalar yechimini beradi. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyat kapital konsepsiyasi⁶, hududda mavjud barcha aktivlar shu jumladan moddiy va nomoddiy aktivlarni o'z ichiga qamrab olib, ushbu aktivlardan samarali foydalanish uchun qabul qilinadigan qarorlar va malaka tajribalarini hisobga olgan holda, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning (shahar, viloyat) endogen rivojlanish asosini tashkil etadi. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning rivojlanishi va reja dasturlarini tuzish uchun bu yondoshuvning ahamiyati katta.

Yevropa ittifoqining rivojlanish imkoniyatlari avvalom bor sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga asoslanadi. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning rivojlanishi bashoratlarida asosiy e'tibor endogen aktivlarga, so'ng ekzogen – investisiya va transfertlarga asoslanadi. Har bir hududning ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi kompleks o'zaro bog'liq omillarga infratuzilma, geografik joylasho'vi, ko'lami, demografik ko'rsatkichlar, sanoatlashuv ixtisolashuvi, sanoat korxonalarida innovasionfaoliyatlashtirish darajasi kiradi⁷. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyat rivojining asosiy faktoriga endogen ko'rsatkichlar kiradi, bularga:inson kapitali (yuqori malakali mutahassislar zahirasi sifatida ham, mehnat resurslari kasb ishchilarining yetishmasligi sifatida ham), infratuzilma, innovasion faollik, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatlashuvi va ko'lami e'tiborga olinadi. Bu omillar bir birini to'ldiro'vchi bo'lib hisoblanadi. Ushbu aktiv va resurslarni boshqaro'vi sifatiga ham e'tibor qaratiladi.

Rivojlangan huddular uchun innovasion omillar guruhi ko'rsatkichlari katta ahamiyat kasb etib ularga ko'yidagi ko'rsatkichlar kiradi: texnologik rivojlanish darajasi, biznesning murakkablik va rivojlanish darajasi, innovasion rivojlanish darajasi.

⁶ OECD Territorial Outlook 2001 URL: <http://www.oecd-ilibrary.org>

⁷ OECD How regions grow: trends and analysis, OECD publishing, 2019, p34

Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishi masalalari iqtisodiy inqirozlar sharoitida ayniqsa katta ahamiyat kasb etdi. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning inqirozga bardosh beraolishligi, inqirozdan chiqish, qayta tiklanishi qanchalik tezligi masalalariga sanoat korxonalarida innovasion faoliyat salohiyat indeksleri asosida amalga oshiriladi.

Avstraliyada sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning salohiyati indeksi AQSH uchun ishlab chiqilgan sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning salohiyati indeksi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uchta asosiy guruh indeksleri – iqtisodiy salohiyat indeksi, ijtimoiy – demografik salohiyat indeksi va jamiyatning rivojlanish indekslarini o'z ichiga qamrab olgan⁸.

Iqtisodiy salohiyat indeksi hudud aholi daromadlarining tengsizligi ko'rsatkichlari, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning iqtisodiy diversifikatsiya darajasi, uy-joyning arzonligi darajasi hamda iqtisodiydinamikaning subindeksi dan iborat, u o'z navbatida ilmiy tadqiqot tajribakonstruktorlik xarajatlaridan, yil davomida yangidan tashkil etilgan va faoliyatini to'xtatgan korxonalar miqdoridan, kengpolosli internetga ulangan uy xo'jaliklaridan, yirik korxona va kichik korxonalar sonidan iborat. Ijtimoiy – demografik indeksi sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning ta'lim olish darajasini baholaydi, mehnat bozorida xotin- qizlarning qatnashish darajasini, qashshoqlik darajasi va umr ko'rish darajasi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatda jamiyatning rivojlanish indeksi integral ko'rsatkichlarni o'z ichiga qamram olgan bo'lib, ularga ko'yidagilar kiradi: immigrantlar ulushi, sport musobaqalarida qatnashayotgan shaxslar, aholining saylovlardan faol qatnashishi, qamoqxonalarda mahbuslarning ulushi.

Rossiya Federativ Respublikasida Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarini yaratishni baholashda 03.12.2010 yilda qabul qilingan Rossiya Federatsiyasining Moliya Vazirligi № 552 "Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatda moliya boshqaruvini sifatini baholash va monitoringini olib borish tartibi to'g'risida"gi qaroriga asosan sanoat korxonalarida innovasion faoliyat va munisipalitetlar bilan moliyaviy munosabatlar monitoringi olib boriladi. Bunda sanoat korxonalarida innovasion faoliyat byudjetlar ijrosi tahlili, mahalliy byudjetlar monitoringi, ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha mablag'lar yetarliligi monitoringi, Rossiya Federatsiyasi sub'yektlarining qarz siyosati monitoringi, Rossiya Federatsiyasi sub'yektlari va munisipalitetlari moliyasini boshqaro'v sifati va moliyaviy holati monitoringi, byudjet kodeksi talablariga rioya etish monitoringi olibboriladi.

Rossiya Federatsiyasida Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarini yaratishni baholash usullari asosini mavjud statistik baza tashkil etadi. Hisob kitoblar Milliy hisoblar tizimi (MHT), alohida moliyaviy oqimlarning statistik tavsiflari, integratsiyalashgan (aralash) moliyaviy oqimlar to'g'risida bir qancha ma'lumotlardan foydalaniladigan usular

⁸KPMG Australian Regional Capacity index, KPMG, 2015/ URL: <http://www.kpmg.com/AU/en/IssuesAndInsights/ArticlesPublications/Documents/australian-regional-capacity-index.pdf>

asosida amalga oshiriladi⁹.

Milliy hisoblar tizimi asosida asosiy innovasion salohiyat ishlab chiqarish hisoblamasi orqali amalga oshiriladi. Innovasion salohiyat elementlarini tashkil etadigan investision salohiyat, byudjet salohiyati, soliq salohiyati va boshqalar, milliy hisoblar tizimining boshqa hisoblamalari asosida baholanadi. Milliy hisoblamalar tizimidan foydalanish cheklangan, boisi hamma hisoblamalaridan alohida sub'yektlar va munisipalitetlar uchun hisob kitoblari amalga oshirilmaydi, balkim mintaqa miqiyosida hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning iqtisodiy, innovasion salohiyatini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning rivojlanishini tahlil qilish va monitoringini olib borishning, hudud klasterlari, innovasion darajasi va barqaror rivojlanishining kompleks baholanish ko'rsatkichlarining bir qismini tashkil etishi mumkin. Masalan O.Yu.Vavilova ta'kidlaganidek, Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarini yaratishni baholash reytingida, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning yo investision jozibadorligini baholaydi, yo samaraliboshqaishini baholaydi, yo kompleks baholash metodikasida omillar guruhi ko'rsatkichlari asosida baholanadi¹⁰. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda ko'rsatkichlar tanlanadi va baholash metodologiyasi ishlab chiqiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, rivojlangan AQSH, Yevropa ittifoqi, Avstraliya kabi mamlakatlarda sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarini yaratish soliq salohiyati bilan sinonim sifatida ishlatiladi.

Yevropa ittifoqining bazaviy omillar guruhini ifodalovchi ko'rsatkichlarga – makroiqtisodiy barqarorlik, ifratuzilma, sihat salomatlik institutlar va o'rta ta'lim sifati kiradi. Bu ko'rsatkichlarrivojlanishi jihatidan past sanoat korxonalarida innovasion faoliyatuchun ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ichki manbalarini yaratishni baholash metodikasi, o'rganilgan davlatlar tajribalaridan Rossiya Federatsiyasi baholash metodikasi yaqin bo'lib, asosan davlatda mujassam statistik baza asosida hisoblanadi va qayta bahoolash davri bir yilga belgilangan. Bu bizning mamlakamizda olib borilayotgan Yangi O'zbekiston strategiyasiga xos bo'lib har yilda amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxriddinov N. Xo'jalik yurutuvchi korxonalarni innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirishda xorij tajribasining o'rni // Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil: ilmiy elektron jurnal. – 2025. – Aprel, № IV.
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.

⁹ Verbinenko Ye.A. finansovyy potencial regiona: sushnost i podkhody k osenke. Kolsk ilmiy markaziningXabarnomasi. Iqtisodiyot va biznes.2011

¹⁰ Vavilova O.Yu., Rastvorseva S.N., Snitko L.T., Cherepovskaya N.A. Metodika osenki ekonomicheskogopotensiala dlya razvitiya klasterov v regione // DAYDJEST-FINANSI-2013-№9-18-29b.

3. Друкер П. Новый бизнес. – М.: Экономика, 1993.
4. Анчишкин А. И. Наука – техника – экономика. – М.: Экономика, 1986. – 35 с.
5. Уткин Э. А., Морозова Г. И. Инновационный менеджмент. – М.: Акалис, 1996. – 208 с.
6. Tugusheva V. R., Yunyaeva R. R. Agrosanoat majmuasida innovatsion faoliyatni kreditlash uchun davlat imtiyozlari // Izvestiya Perm davlat pedagogika universiteti. V. G. Belinskiy nomidagi. – 2011. – № 24. – В. 469–474.
7. Anwar Shah. Local Budgeting. – Washington: World Bank, 2007. – 381 p.
8. Grishina I. V., Polynev A. O. Социально-экономическое положение российских регионов: методические подходы и результаты комплексной оценки // Современные производительные силы. – 2012. – № 1. – С. 3–28.
9. OECD. How Regions Grow: Trends and Analysis. – OECD Publishing, 2019. – 34 p.
10. KPMG. Australian Regional Capacity Index. – KPMG, 2015. – URL: <http://www.kpmg.com/AU/en/IssuesAndInsights/ArticlesPublications/Documents/australian-regional-capacity-index.pdf> (дата обращения: [укажите]).
11. Вербиненко Е. А. Финансовый потенциал региона: сущность и подходы к оценке // Вестник Кольского научного центра. Серия: Экономика и бизнес. – 2011.
12. Вавилова О. Ю., Растворцева С. Н., Снитко Л. Т., Череповская Н. А. Методика оценки экономического потенциала для развития кластеров в регионе // Дайджест-Финансы. – 2013. – № 9. – С. 18–29.